
“Ajdodlar merosi-ma’rifat ziyosi”

Toshloq tumanining eng chekka hududi-Nayman madaniyat markazida “Ajdodlar merosi-ma’rifat ziyosi” deb nomlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Unda umumta’lim maktablari o’quvchilari, ijodiy-madaniy masalalar bo’yicha targ’ibotchilar, mahalla aholisi ishtirok etdi. Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo’limi rahbari Ma’sudjon Sulaymonov o’z so’zida ajdodlarimizning boy merosi xalqimizning ulkan ma’naviy xazinasi ekanligini ta’kidladi. Tadbirda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning g’azallari o’qildi, sahna ko’rinishlari namoyish etildi. Tuman madaniyat bo’limi xodimlari, ijodiy-madaniy masalalar bo’yicha targ’ibotchilar va o’quvchilarning chiqishlari barchaga manzur bo’ldi.

2023-02-13 17:00:52